



DAVLAT HOKIMIYATI BOSHQARUVINI NOMARKAZLASHTIRISH VA MARKAZLASHTIRISH O'RTASIDAGI MUAMMO

Tadjibayeva Nozima Abbas qizi

O'zJOK universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada davlat hokimiyatini tashkil etishda markazlashtirish va nomarkazlashtirish tamoyillari muvozanati, boshqaruv tizimini yahlit tashkil etish hamda joylardagi ehtiyojlarni inobatga olish masalalari siyosiy yondashuv asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: markazlashtirish, normarkazlashtirish, davlat boshqaruvi, mahalliy boshqaruv, fuqarolar ishtiroki, boshqaruv samaradorligi.

Annotation: The article analyzes the balance between the principles of centralization and decentralization in organizing state power, as well as issues of establishing an integrated governance system and considering local needs from a political perspective.

Keywords: centralization, decentralization, state governance, local administration, citizen participation, governance efficiency.

Davlat hokimiyatini tashkil etishda markazlashtirish va normarkazlashtirish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash murakkab va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Boshqaruv tizimini yahlit va tizimli ravishda yo'lga qo'yish markazlashtirish orqali amalga oshirilsa-da, joylardagi aholining ehtiyojlariga moslashuv, fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonidagi ishtirokini ta'minlash kabi maqsadlar normarkazlashtirishni talab etadi.

Markazlashtirish davlat hokimiyatining yagona markaz orqali muvofiqlashtirilishi, uning barqarorligi va tizimli faoliyatini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, normarkazlashtirish — mahalliy darajada qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish, aholining boshqaruvdagi ishtirokini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ushbu ikki yondashuv o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish nafaqat boshqaruv samaradorligini oshirish, balki ijtimoiy barqarorlik va xalq manfaatlarini ta'minlash uchun ham muhim hisoblanadi.

A. de Tokuvel Amerika hokimiyati va davlat tizimi tajribasini umumlashtirib, markaziy hokimiyat qanchalik ma'rifatli va dono bo'lmasin, u ulkan xalq hayotining barcha tafsilotlarini yagona kuch bilan qamrab ololmasligini ta'kidlagan. Bu vazifa inson imkoniyatlarining barcha chegaralaridan oshib ketgani uchun amalga oshirilishi imkonsizdir. Bunday hokimiyat o'z kuchi bilan cheksiz ko'p turli ijtimoiy mexanizmlarni yaratish va ularni ishga solishga intilganda, u yoki natijalar bilan qoniqishi, yoki uning harakatlari butunlay bekor ketishi muqarrardir.



Shu bilan birga, davlat hokimiyatini normarkazlashtirish va markazlashtirish o'rtasidagi munosabatlarni kengroq tahlil qilish uchun markazlashtirish va nomarkazlashtirish jarayonining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish kerak. Markazlashtirishning bir qator afzalliklari mavjud bo'lib, avvalo, u qaror qabul qilish jarayonlarini soddalashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishda aks etadi. Yagona boshqaruv markazining mavjudligi resurslarni taqsimlash va siyosatni amalga oshirish jarayonlarini tezlashtiradi.

Oxford University Press manbasiga ko'ra, nomarkazlashtirish markaziy hokimiyat vakolatlarini mahalliy organlarga o'tkazish orqali ularning mustaqilligini oshiradi. Bu yondashuv mahalliy ehtiyojlarga mos siyosat va xizmatlarni shakllantirish, boshqaruvni tezkor va moslashuvchan qilish, hamda innovatsion yechimlarni rag'batlantirish imkonini beradi. Qarorlar fuqarolarga yaqinlashgani sayin, ularning boshqaruvdagi ishtiroki va faolligi ortadi. Masalan, Tunisda 2011-yildan so'ng vakolatlarning mahalliy darajaga o'tkazilishi hududlararo tengsizlikni kamaytirish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qilgan.

Nomarkazlashtirish afzalliklariga qaramay, muvofiqlashtirishdagi qiyinchiliklar va resurslarning noteng taqsimlanishi kabi muammolarni yuzaga keltiradi. Masalan, Indoneziyada 1999-yildan boshlab amalga oshirilgan jarayon iqtisodiy yaqinlashuvni kuchaytirgan bo'lsa-da, poytaxtga bog'liqlikni saqlab qolgan. Shu sababli, markazlashtirish yoki nomarkazlashtirishni tanlash mamlakatning tarixiy, madaniy va siyosiy sharoitlariga bog'liq bo'lib, ular o'rtasida muvozanatni topish eng samarali yondashuv hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Davlat boshqaruvi tizimida markazlashtirish va nomarkazlashtirish tamoyillari o'zaro qarama-qarshi ko'rinishiga ega bo'lishiga qaramay, ular murakkab ijtimoiy-siyosiy tizim sifatida davlatning samarali faoliyat yuritishi uchun o'zaro uyg'unlashgan holda amal qilishi lozim. Markazlashtirish boshqaruv funksiyalarini yagona markazda jamlash orqali davlat siyosatini bir xilda yuritish, resurslardan oqilona foydalanish, milliy xavfsizlik va favqulodda holatlarda tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, nomarkazlashtirish mexanizmi mahalliy boshqaruv organlariga kengroq vakolatlar berish orqali hududiy muammolarni joyida hal etish, tashabbuskorlikni rag'batlantirish, fuqarolarning boshqaruvdagi ishtirokini ta'minlash va davlat xizmatlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муқимжон Киргизбоев, *Сиёсатишунослик*, "SHARQ" nashriyoti, Toshkent, 2024, 434–435–betlar.
2. Гапсаламов А. Р., Бочкарева Т. Н., Васильев В. Л. Диалектика централизации и децентрализации управления в СССР и современной России //



Финансы и кредит. — 2024. — № 10. — С. 162 — DOI: <https://doi.org/10.24158/fik.2024.10.22>.

3. Ходов Н. В. Централизация и децентрализация государственной власти в современной России (общеправовой анализ): автореф. дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.01 / Н. В. Ходов. — Нижний Новгород, 2005. — С. 8

4. Suny R.G. The Soviet Experiment: Russia, the USSR, and the Successor States. New York; Oxford: Oxford University Press, 1998. Pp. 649–650.

5. Connerley, E., Eaton, K., Smoke, P. (eds.). Making Decentralization Work: Democracy, Development, and Security / edited by Ed Connerley, Kent Eaton, and Paul Smoke. // Boulder, CO: Lynne Rienner Publishers, 2010. – ISBN 978-1-58826-732-0. – P. 5.

6. Bardhan P., Mookherjee D. *Decentralization and local governance in developing countries: a comparative perspective* / ed. by Pranab Bardhan, Dilip Mookherjee. – Cambridge (Mass.); London: The MIT Press, 2006. – 416 p. – ISBN 978-0-262-02600-0. – P. 95.

7. Заякин В. Г. Проблемы централизации и децентрализации власти в современной России // Молодой ученый. — 2020. — № 52 (342). — С. 195

